

УДК 81.81-13

CHOG‘ISHTIRILAYOTGAN TILLARDA QURILISH SOHASIGA OID ATAMALARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDAGI TAHLILI

Sobirov Otabek Qodirovich

Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi

E-mail: otabeksobirov774@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada frazeologik birliklar atamalarining rivojlanishi analitik ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, chog‘ishtirilayotgan tillarda so‘z yasovchi qo‘shimchalarning nisbatan yaxshi rivojlanmaganligi, frazeologik birliklar so‘zlarning semantik yaxlitlikka sintaktik qulayligini ta‘minlanishi, atamalar va frazeologik birliklar semantik birlashishi asosida boshqa bir ma’nolar hosil qilinishi, har ikki tillarda frazeologik birliklarga xos atamaning ma’nosi tarkibiy qismlarning umumiy va maxsus birikmasida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar va iboralar: frazeologik birliklar, struktur-semantik, leksema, komponent, model.

АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ, ОТНОСЯЩИХСЯ К СФЕРЕ КОНСТРУКЦИИ, ВО ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦА

Собиров Отабек Қодирович

Преподаватель Андижанского государственного университета

E-mail: otabeksobirov774@gmail.com

Аннотация: В данной статье фразеологизмы являются одним из аналитических показателей развития терминов, в сопоставимых языках относительно слабо развиты словообразовательные суффиксы, фразеологизмы обеспечивают синтаксическую доступность слов к семантической целостности, на основе семантического объединения терминов и фразеологизмов образуются другие значения, значение термина, присущее фразеологизмам в обоих языках, раскрывается в общем и специальном сочетании компонентов. дается.

Ключевые слова. фразеологизмы, структурно-семантика, лексема, компонент, модель.

ANALYSIS OF TERMS RELATED TO THE FIELD OF CONSTRUCTION IN PHRASEOLOGICAL UNITS

Sobirov Otabek Kodirovich

Teacher of Andijan State University

E-mail: otabeksobirov774@gmail.com

Annotation: In this article, phraseological units are one of the analytical indicators of the development of terms, the relatively poor development of word-making suffixes in languages under development, phraseological units ensure syntactic convenience of words to semantic integrity, the formation of other meanings based on the semantic Union of terms and phraseological units, the meaning of a term specific to phraseological units in both

Keywords and expressions: phraseological units, structural-semantic, lexeme, component, model.

KIRISH

Ma'lumki, frazeologik birliklar har ikki tillarda atamalarni shakllantirish usullaridan biridir. Bu esa lug'atlarning tarkibiy qatlamini farqlovchi xususiyatlaridan biridir. Atamalarga oid lug'atlarni shakllantirishda fanda paydo bo'lgan yangi tushunchalarning nomlanishi va sohaga oid atamalar tizimida yangi so'z yasash vositalarini takomillashtirish muammo keltirib chiqaradi, shuningdek, frazeologik birikmalarning atamalar sifatida faollashishi biror bir sohadagi so'zlar tushunchalarini kengayishini amalga oshirish vositalaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ma'lumki, XX asrning 20-yillaridan boshlab so'zlarni bir-biriga qo'shish orqali atamalarning shakllantirish tilshunoslikda lug'atshunoslik sohasini rivojlanishining o'ziga xos yuksalishga erishishiga zamin bo'ldi. Ingliz tilidagi atamalar va iboralar XX asrda ham rivojlangan. B.N. Golovin fikricha "atama - bu

kasbiy tushunchani anglatadigan va ma'lum bir kasb sohasidagi (ilmiy, texnik, ishlab chiqarish, aloqa) o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqilgan ism asosida yaratilgan alohida so'z yoki bo'ysunuvchi so'z birikmasi, boshqaruv"dir [Golovin1980: 276].

Frazeologik birliklar atamalarning rivojlanishi analitik ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, chog'ishtirilayotgan tillarda so'z yasovchi qo'shimchalarning nisbatan yaxshi rivojlanmaganligi hisoblanadi. Frazeologik birliklar so'zlarning semantik yaxlitlikka sintaktik qulayligini ta'minlaydi.

Atamashunoslikda frazeologik birliklarni shakllantirish yo'li so'z hosil qilish vositalarining cheklangan imkoniyatlari bilan izohlanadi. Frazeologik birliklar nutq jarayonida leksemalarning kengaytirilgan shaklida bo'ladi. Ikki so'zni bir-biriga ma'noviy birlashtirish frazeologik atamalardan tarkibiy semantik xususiyatlar jihatdan mos keladi. Chunki qisqartma atamalar bitta tushunchani anglatadi va struktur-semantik butunlikni ifodalaydi. Atamalar va frazeologik birliklar semantik birlashishi asosida boshqa bir ma'nolar hosil qiladi. Har ikki tillarda frazeologik birliklarga xos atamaning ma'nosi tarkibiy qismlarning umumiy va maxsus birikmasida ochib beriladi. Atama shaklidagi frazeologik birikmada har bir so'z ma'lum darajada leksik ma'nosining faolligidan mahrum bo'ladi. Shu bilan birga, atamalar va frazeologik birliklar asosiy semantik ma'noni o'z ichiga olgan komponentlardan birini tashkil etadi. Ushbu komponent grammatik jihatdan asosiy yoki tobe leksema bo'lishi mumkin. Frazeologik birliklarning sintaktik qatlami har bir tilga xos bo'lgan bir xil tarkibiy struktura bo'yicha shakllangan oddiy birliklar bo'lib, unda tilning sintaktik va grammatik xususiyatlaridan turlarini shakllantirishda foydalaniladi.

MUHOKAMA

Frazeologik birliklar birlashtirilgan komponentlar soniga ko'ra ikkita tarkibiy turga ajratiladi: a) ikki komponentli va b) ko'p komponentli. Ingliz va o'zbek tillarida ikki komponentli atamalar quyidagi modellar bo'yicha shakllantiriladi. **Ot+ot** = modeli vositasida yasalgan birikma terminlar: *sinov laboratoriyasi, struktur qoplama, mustahkam sim, taxta randa, yog'och sirkul, taxta pol, mix yashik, taxta material,*

bolta dastasi, kitob tokchasi, reja chizig'i, kertmak usuli, bolg'a dastasi, uya o'rni, arralashning to'g'riligi, sirtning tekisligi, brusokning uzunligi, taxtaning qirqimi, sirtning silliqligi, yog'ochning tolalari, qirqimlarning go'niyaliligi, yog'ochning qattiq-yumshoqligi, o'yishning chuqurligi, taxtaning beti, taxtaning qalinligi, birikmaning puxtaligi, birikmaning jipsligi, yog'ochning diametri va boshqalar. Masalan: Aks holda tig' yog'ochga botib, sirtning silliqligini buzadi. (Azimov S. Duradgorlik Yordamchi maktablarning 7-sinfi uchun darslik, 86); Brusokning uzunligi tayyorlanadigan buyumning hajmiga, katta – kichikligiga bog'liqdir (DI, 506). Bu kabi birikmalarning birinchi komponentini -ning kelishik qo'shimchasisiz ham qo'llash mumkin. Bunday hollarda ma'noga putur yetmaydi, albatta.

1. Sifat +ot = modeli vositasida yasalgan birikma terminlar: *temirli qatlami, betonli qatlami, loyli qatlam, soyali ayvon, qurilish zal, parketli pol, g'ishtli pol, yuqori qavati, burama mix, sementli pol, o'sma butoq, o'rama butoq, sementli ohak, asl o'lcham, kichik o'lcham, munosib o'lcham, qavariq sirt, dastaki parma, ichki sirt, tashqi sirt, yarimtaki g'o'la, tashqi sinch, oldingi iskanja, ponasimon ulash, o'yuvchi iskana, qirquvchi iskana, to'sinbop yog'och, ko'ndalang qirqim, tekis qirqim, ingichka xoda, yo'g'on xoda, butun g'o'la, nam yog'och, qattiq yog'och, sun'iy quritish, nozik o'zak, tayanch to'qima, orqa iskanja.*

2. ot +Fe'l = vositasida yasalgan birikma terminlar: *biton qoplamoq, qara qoplamoq.* Shuningdek, ingliz tilida ham frazeologik birliklarni struktur modellarini ishlab chiqqanimizda, ular quyidagicha modellarda shakllanishini guvohi bo'ldik:

1. Adj+N = modeli vositasida yasalgan birikma terminlar: *hollow, abutment, buried, abutment, cellular abutment, forked abutment, hard aggregate, bearing area, edging board.* Ushbu model komponentlar o'rtasidagi atributiv semantik munosabatlarga asoslanadi. Bunda bosh komponent predmetni belgilaydi va tobe komponent predmetni o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

2. N+N = modeli vositasida yasalgan birikma terminlar: *breast abutment, bridge abutment, land abutment, interground addition, filler aggregate, hand blower, pain blower, floor board, clincher brick, clay brick, grout cart.*

3. **V+N** = modeli vositasida yasalgan birikma terminlar: *to point a pile, to duplicate conditions, to pick a stone, to drive home, to drive a rivet, to drive tunnel, to drive a wall, to piece a bearing, pressed to shape*. Ushbu birikmalar yadro sifatida fe'l bo'lsa, otga bog'lanadi va komponentlar o'rtasida obyektiv munosabatlar o'rnatiladi.

4. **N+Prep+N** = modeli vositasida yasalgan birikma terminlar: *addition of clay, addition of sand, area of base, arm of balance*/ Ushbu modeldagi boshqa predloglar yordamida ham ifodalanishi mumkin: *rivet in tension, rivet in showbar, consolidation by vibration, load at failure, cantilever for footway, ditch for foundation*.

5. **V+Prep+N** = modeli vositasida yasalgan birikma terminlar: *to load in bulk, to load on axle, to rivet on flange*.

Qiyoslanayotgan tillarda uch va undan ortiq komponentli atamalarni jamlovchi murakkab frazeologik birliklardan ham iborat bo'lishi mumkin. Uch va undan ortiq komponentli atamalarni tuzish tamoyillari murakkab frazeologik birliklarni shakllantirish usullarini aks ettiradi. Shuning uchun birikmalardagi asosiy yoki tobe qismi butun iboraning mazmunini ifodalashda ahamiyat kasb etadi. Masalan: ingliz tilida: *load uniformly distributed over span, sand-bearing method of testing clay pipes, glued laminated timber arch, intermediate duty fireclay brick, parallel curve rib arch bridge, chamber of tie bar of roof, lodged braced and battened door*.

O'zbek tilida: *yumaloq yog'och material, taxtalarni maxfiy taxlash, sirtlarni silliqlovchi stanok, taxta randa kundasi, dasta bet bog'lash usuli, ko'p tirnoqli birikmalarni rejalash, ko'p tirnoqli o'zgaruvchi andaza, yog'och ishlanadigan tokarlik stanogi, qirquv iskana yordamida yo'nish, tirgakni markaz bo'yicha o'rnatish, turli xil sirtlarni rejalash, egri chiziqli o'yiqlar hosil qilish, uzunasiga qirquvchi disk arrali stanok, ochiq qiya turum bilan ulash usuli, yog'ochlarni changakli pona yordamida o'rnatish, markazlar yordamida silindrik sirtlarni xomaki yo'nish, yelimlash yo'li bilan tuzatiladigan qismlarni puxta biriktirish, taranglanadigan to'g'ri qulf usulda uzaytirib ulash va boshqalar.*

NATIJA

Ko'rib chiqilgan ko'p komponentli birikmalarning aksariyat qismi ikki komponentli leksemalarning birikuvidan tashkil topgan. Bunday birikmalar esa lug'aviy birliklarning bir-biri bilan birikish, usul va vositalari xilma-xilligi bilan yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Shu boisdan ham quyida mana shunday ikki komponentli birikma terminlarning xil va turlari xususida to'xtab o'tish lozim. Chunki shu yo'sinda birikishning qonun-qoidalari aniqlangandan keyin ko'p komponentli birikmalarning shakllanish yo'llarini belgilab olish ancha oson ko'chadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi materiallar asosida kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida qurilish atamalariga oid frazeologik birliklar turli so'z turkumlari bilan 5 ta ekan. O'zbek tilida esa faqat 3 ta model asosida ifoda etilishini kuzatdik.

O'zbek tilida qurilish atamalariga oid frazeologik birliklarning gaplarda qo'llanish holatini quyidagi jadvallar orqali statistik tahlilini berishimiz mumkin

(1-jadval):

Modellar	Frazeologik birliklarning misollarda qo'llanishi	Frazeologik birliklarning qo'llanilish miqdori	% foiz ko'rsatkichi
Ot+ot	mustahkam armatura, taxta randa,	84	53.8
Sifat+ot	yuqori qavati, burama mix,	60	38.4
ot +Fe'l	biton qoplamoq, qara qoplamoq	15	7.6
Jami		159	100%

Ingliz tilida qurilish atamalariga oid frazeologik birliklarning gaplarda modellar orqali qo'llanish holatini quyidagi statistik tahlil yordamida ko'rish mumkin (2-jadval):

Modellar	FBlarning misollarda qo'llanishi	FBlarning qo'llanilish miqdori	% foiz ko'rsatkichi
Adj+N	cellular abutment, bearing area	26	26.5

N+N	breast abutment, bridge abutment	20	20.4
V+N	to point a pile, to duplicate conditions,	13	16.3
N+Prep+N	addition of clay, consolidation by vibration,	24	24.4
V+Prep+N	to load in bulk, to load on axle,	12	12.2
jami		93	100%

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, til insoniyatning faol ishtiroki bilan bog‘liq bo‘lib, u insoniyat tomonidan yaratilgan. Ilm yangi nazariyalar va voqeliklarning yangi fenomenlari ta’siri ostida rivojlanadi. Xususan, yuqori texnologiyalar asri sanalayotgan XXI asr insoniyat hayot tarzi, jumladan, tili, san’ati, qurgan jamiyat tarkibi, oilaviy munosabatlar va boshqalarni tubdan o‘zgartirmoqda. Til har qanday kishilik jamiyatining mulki bo‘lib, uning hodisa sifatida o‘zgarib, rivojlanib borishi mutlaqo tabiiydir.

Shu bilan bir qatorda, til – ajdoddan avlodga meros bo‘lib o‘tuvchi madaniyatni anglash va tadqiq qilishning asosiy quroli hamdir. Ilmni, dinni, adabiyotni teran anglash, yuzaga keladigan harbiy nizolar va ziddiyatlarning oldini olish faqatgina til, ya’ni bahslar, muzokaralar, sulh va bitimlar, kelishuvlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Chog‘ishtirilayotgan tillarda so‘z yasash usullarining tahlili va umumlashtirilishiga kirishar ekanmiz, bizning asosiy vazifamiz so‘z yasashning amaldagi usullarini aniqlashdan iborat. Buni nafaqat umumiy foydalanuvdagi leksika tizimida, balki ilmiy terminologiya tizimida ham ishlatish mumkin. Terminlar esa keng tarqalgan leksika so‘zlaridan farqli o‘laroq odatda murakkabroq tuzilishga ega bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996.

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. I jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
3. Jabborov I. O'zbeklarning an'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati. – Toshkent: Sharq, 2008.
4. Uralova O.P. Ingliz va o'zbek tillarida "oila" bosh leksemali maqollar semantikasi va strukturasi: Filol. fanlari falsafa d-ri. diss. – Samarqand, 2021.
5. Safarov Sh. Semantika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2013.
6. Maxmaraimova Sh. Hozirgi o'zbek tili leksikologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Firdavs-Shoh nashriyoti, 2021.
7. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya fanidan ma'ruzalar kursi. – Toshkent: Universitet, 2014.
8. Cowie [A.P.](#) Phraseology: Theory, Analysis, and Applications. – Oxford: Clarendon Press, 1998.
9. Boas F. Race, Language, and Culture. – Chicago: University of Chicago Press, 1995.
10. Azimov S. Duradgorlik Yordamchi maktablarning 7-sinfi uchun darslik